

Abduxolikova Nasiba Alijonovna
Namangan davlat chet tillar instituti
v/b dotsenti falsafa
fanlari doktori PhD

YOSHLARNING IJTIMOIIY TARMOQLARGA TOBELIGINI OLDINI
OLISHDA AXLOQIY MA'RIFATNING O'RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida axloqiy ma'rifatning mohiyat va mazmuni muammolari yoritib berilgan, maqola yoshlarning axborotga bo'lgan ehtiyojining dinamik o'sishidan, internet tobeligidan ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikni falsafiy tahliliga bag'ishlangan.

Kalit so'lar: Ma'naviyat va ma'rifat, Axloqiy ma'rifat Pedagogikasi, yoshlar ma'rifiy tarbiyasi, internet –komunikatsiya, ijtimoiy tarmoqlarga tobelik.

Аннотация

Это статья посвящена проблемам сущности и содержанию нравственного просвещения молодежи в системе высшего образования. . В этой связи в статье посвящена философского анализа динамичного роста в потребности к информации молодежи, что переходит от Интернет зависимости к зависимости социальным сетям.

Ключевые слова: духовность и просвещение, педагогика нравственного просвещения, воспитания, молодежи Интернет-коммуникация, зависимость от социальных сетей,

Annotation

This article is devoted to the problems of the essence and content of moral education of young people in higher education. In this regard, the article is devoted to the philosophical analysis of the dynamic growth in the need for information of

young people, which is moving from Internet addiction to addiction to social networks

Key words: spirituality and enlightenment pedagogy of moral education, education of enlightenment of youth. Internet communication, addiction to social networks

Kirish bo‘limi. Inson hayotining har bir bosqichi muhimdir. Mazkur muhim bosqichlar ichida umrining yoshlik bosqichi alohida ahamiyatga egadir. Yoshlik inson umrining eng nozik davri hisoblanadi. Shu bilan birga yoshlik davri insonning hayot yo‘llarining chorrahasida turgan payti hamdir. Agar o’sha chorrahada inson yaxshi yo‘lga kirib qolsa, o’zi, oilasi, qarindoshlari, xalqi, vatani sari juda katta yuz burgan bo‘ladi. [1.b. 253] Bundan kelib chiqib biz pedagoglar zimmasida ulkan ma’sulyatli vazifa turganligini his etmog‘imiz kerak. Bu ma’sulyatli vazifa shundan iboratki, yurtimiz kelajagi uchun har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalab bermog‘imiz va bugungi globallashuv sharoitida ularning axloqiy ma’rifatini o‘stirishga bor kuch g‘ayratimizni sarf etmog‘imiz kerak.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yoshlar axloqiy ma’rifati haqida so‘z borar ekan, avvalo axloq so‘zining ma’no mazmuniga etibor beradigan bo‘lsak, ahloq, jamiyat, zamon, insoniyat tarixi uchun namuna bo‘ladigan harakatlar yig‘indisidir. Zero yoshlarning axloqi va axloqiy ma’rifati masalasi o‘zbek xalqining ulug‘ muttafakiri ma’rifatparvari va buyuk shoiri Alisher Navoiyni ijodini ham chetlab o‘tmadi. U yoshlarni tarbiyalash ishiga alohida etibor berdi va shu bilan birga ilm, ma’rifat haqida ajoyib fikrlarni olg‘a surdi. U aqil, ilm insonning eng go‘zal va zaruriy fazilatlaridan biri, har bir kishining eng muhim burchi ilm olishdir deb hisobladi. Navoiy ,ilm fanni egallash uchun yoshlikdan boshlab astiydil o‘qish – o‘rganish kerak deya takidlaydi. Alisher Navoiyning axloqiy tarbiya to‘g‘risidagi fikrlarini ko‘proq barkamol insonni ifodalovchi ijobiy obrazlar yaratish orqali bayon qiladi. Ilm ma’rifat , axloq - odob masalalariga doir fikrlarini esa ilmiy falsafiy va didaktik asrlarida bayon qiladi. Navoiy aql kuchiga cheksiz ishonadi, komil ishonch bilan ilm fanning fazilati juda katta deb hisoblaydi. Uning “Hayrat ul

- abror"asarini bir necha boblari axloq-odob va ta'lim tarbiya masalasiga bag'ishlangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ma'rifat tushunchasiga to'xtalib o'tar ekanmiz bu so'zning lug'aviy ma'nosi bilish, bilim, ma'lumot, tanish, tanishish ma'nolarini bildiradi. Umuman uning lug'aviy ma'nosi bilimdir. Atama sifatida esa u tabiat jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli tuman bilimlar ma'lumotlar majmuasini bildiradi. Marifatli degani bilimli, muayan soxada bilimi bor degani bo'lib, insonparvarlik ma'naviyati zimmasidagina o'z mohiyatiga ega bo'ladi. Kishilarning bilimi, madaniyati oshishiga qaratilgan ta'lim tarbiyaga ham ma'rifat deb qaraladi. Bu so'z ilm-u-urfon ma'nolarida ishlatiladi. Marifat xaqida so'z borar ekan u kishilarning ong bilimini va axloqini oshirishga qaratilgan talim tarbiya morifihamdir.

Muorif – umumiy - o'rta, O'rta maxsus va oily o'quv yurtlarini qamrab oladi Marifat tushunchasi kengroq bo'lib, bilim va ma'naviyatni yoyish va yuksaltirishning hamma sohalarini o'zida uyushtiradi. Marifat haqida nemis faylasufi Imonuel Kant shunay deydi: "Marifat bu insonning o'zi sababchi bo'lgan qaramlik xolatidan chiqishidir. Qaramlik holati bu boshqasining yordamisiz o'z ongidan foydalana olmaslikdir. Qaramlik holatining sababchisi o'zimiz bo'lamiz. Chunki bu holat ongimizning yetishmasligidan emas balki bu ongimizdan boshqasining yordamisiz foydalanishga qarorliligimiz jur'atimiz yetishmasligidan kelib chiqadi." Demak marifat shunday qudratli kuchki u insonlarga jur'at qati'at va har qanday xolatda ham mustaqil qaror qabul qilish kuchini beradi. Ma'rifat va axloq tushunchalari o'rtasida bog'liqlik mavjud bo'lib, bu bog'liqlik shundaki bu ikki tushunchaga ijtimoiy hodisa sifatida qarasak doimo bir birini taqazo qilib keluvchi hodisalardir, axloqiy me'yorlarsiz marifatga erishib bo'lmaganidek ma'rifatsiz axloqiy meyorlarga erishib bo'lmaydi. Chunki inson ilim marifatni egallash yo'lida axloqiy sifatlarga ega bo'lmas ekan o'zi egallagan bilimi bilan jamiyat rivoji uchun foyda o'rniga zarar keltirishi mumkin. Axloqiy ma'rifat hamma davrlarda ham yuksak ahamiyat kasb etib kelgan ijtimoiy hodisadir. Faqat zulum va zo'ravonlikka adolatsizlik va huquqsizlikka asoslangan

totalitar tuzumlardagina yolg'onga bo'ysindirilgan, sohtalashtirilgan hamda shu yo'l bilan uning axamyati pasaytirildi. Bunga misol qilib sobiq SHo'ro davrida xalqimiz ma'naviyatiga shu jumladan axloqiy ma'rifatiga qilingan turli tahdidlar uning axloqiy ma'rifatining birmuncha pasayganligini kuzatishimiz mumkin. Lekin shunday murakkab sharoitda xalqimiz ichidan yetishib chiqqan marifatparvarlarimiz shu jumladan: Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Abdurauf Fitratlar "Huriyat", "Musuvat", "Adolat" kabi g'oyalari asosida xalqimiz ma'rifatini oshirishga o'z hissalarini qo'shdi.

Natijalar bo'limi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishishi sharofati bilan yana axloqiy marifat yangi jamiyatda tobora o'z yuksak mavqeini egallab bormoqda. Shu o'rinda birinchi prezidentimiz Islom Karimovning quydagi qimmatli fikrini keltirishimiz joiz Aslini olganda, "axloq – ma'naviyatning o'zagi" "Inson axloqi shunchaki salomatlik , xushmomilalikdangina iborat emas. Axloq – bu , avvalo , insof va adolat tuyg'usi, iymon halolik degani" [2,b.127]. Bu fikrlar bir tomondan eski tuzumdan qolgan axloqsizlik ko'rinishlariga loqayd qarovchilariga va axloqni yengil yelpi ikkinchi darajali masala sifatida tushunuvchilariga adolatli zarba bo'lsa , ikkinchi tomondan axloq va axloqiy ma'rifatni yangi jamiyatimizdagi ulkan mavqeyini hamda ularning jiddiy ijtimoiy hodisa sifatida talqin etishni taqozo etadi. Ana shunday yangilanish jarayonida axloqiy tarbiyani o'z o'rni bor. Uning oldida yangi demokratik va huquqiy davlat barpo etishga kirishgan mamlakatimiz fuqorolarining, ayniqsa ,yoshlarning axloqiy darajasiga ma'sullik va har tomonlama kamol topgan zamon kishisi tarbiyash zarurati ulkan vazifa bo'lib turibdi. Shunday ulkan vazifani amalga oshirish borasida yurtimizda mustaqillik davridan to bugungi kungacha ta'lim soxasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan mustaqilligimizning dastlabki yillarida qabul qilingan Ta'lim to'g'risidagi qonuni va Kadrlar tayorlash milliy dasturi kabi qonunlarning qabul qilinishining tub zamirida xam yoshlarimizni ta'lim tarbiyaga yo'naltirish va barkamol shaxs qilib tarbiyalash zaruriyati yotadi. Qolaversa O'zbekiston respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati o'z mohiyatiga ko'ra davlatning marifatparvarlik faoliyatini nazarda tutgan xolda kadrlar tayorlash milliy dasturi va

“ta’lim to’g’risida”gi qonunni amalga oshirishning eng samarali yo’llarini izlab topishdir. Ta’limni barcha bo’g’inlarida yoshlarning fe’l atvori, ayniqsa odobi, ya’ni salom alik qilishi va xushmuomilasi zamonaviy tarbiyaviy jarayonda xalqiluvchi omillardan biriga aylandi. Mazkur muammoning kundan kunga murkkablashib borishini O’zbekiston respublikasi “Oila” markazi ma’lumotlarida kuzatish mumkin. Markaz 2017-yilda 20 mingdan ortiq jinoyat voyaga yetmagan yoshlar, jumladan 310 nafari maktab o’quvchilari tomonidan sodir etilganini alohida takidlab o’tgan. Mutahassislar fikricha, 769 holatda maktab o’quvchilrining xuquqbuzarlik va bezoriligining oldini olish bilan bog’liq talablar bajarilmagan. [4,b5]

Munozara bo’limi. Yoshlarimiz orasida yuzaga kelayotgan bunday ayanchli holatning yana bir sababi bu yoshlarimizning ijtimoiy tarmoqlarga tobeligidir. Chunki ijtimoiy tarmoqlar ayniqsa o’smir yoshlarga ma’naviy va psixalagik jihatdan kuchli ta’sir etadi. O’smirlarda ijtimoiy taroqlarga mukkasidan ketish va virtual olamga moyilligi oqibatida odamovilik jizzakilik va asabiylik vujudga keladi. Demak bundan ko’rinnib turibdiki yoshlarimizning xuquqbuzarlik va jinoyat ko’chalariga kirib qolishiga sabab inson ongi va qalbi va ruhiyatiga ta’sir o’tkazayotgan ijtimoiy tarmoqlar orqali keng tarqalgan axborot xurujlari sanaladi. Bugungi kunda yoshlarimizning 60-70% ijtimoiy tarmoqlrnig asiriga aylanib qolganligi haqida statistik ma’lumotlar berib o’tilgan bo’lib, ijtimoiy tarmoqning o’zi nima degan savol tug’uladi albatta. Ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo’lishi 1971-yil birinchi elektron pochta xabarlari yuborilishi bilan bg’liqdir. Ijtimoiy tarmoq masofadan internet orqali odamlar orasidagi online tanishuv hamda muloqotni ta’minlovchi a’zolarining turli hil shaxsiy ma’lumotlarini o’zini aks ettiruvchi internet tarmoqlariga (saytlariga) ijtimoiy tarmoqlar deyiladi. Misol uchun hozir dunyyoda keng tarqalgan “Facebook”, “Odnoklassniki.ru”, “Telegram”, “Tik- Tok” Ijtimoiy tarmoqlar shular jumlasidandir. Olimlar tomonidan ijtimoiy tarmoqlar sizning hayotingizda qanday o’rin tutadi ? mavzusida 130 dan ortiq yoshlarimiz bilan so’rovnoma o’tkazilganda ulardan 32 foizi ushbu tarmoqlar do’stlar orttirish, maanfaatli tanishuvlar uchun kerak degan

fikrni maqullagan bo'lsa, yana qolgan shuncha qismi ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar tarbiyasi va ularning odob axloqiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini tan olgan.

Xulosa. Yuqoridagilardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki bizning bosh maqsadimiz kelajagimiz bo'lmish yoshlarimizga sifatli ta'lim berish bilan birgalikda vatanparvarlik, insoniylik va xaqiqatparvarlik g'oyalarini singdirishdan iboratdir. Zero bu g'oyalar axloqiy marifatni negizini tashkil etadi. Shunday ekan ta'lim maskanlarining har bir bosqichida yoshlarimizni axloqiy bilimlarini shakllantirishimiz va uni yanada kengaytirishimiz har qachongidanda dolzarbroq ahamiyat kasb etmoqda. Qolavvrsa yoshlarimizda mediamadaniyatni shakllantirish orqali ularni ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanishlari uchun ularni axloqiy ma'rifatini boyitmog'imiz kerak. Zero ma'naviy barkamol intellektual salohiyati yuqori avlod tarbiyasi nafaqat O'zbekistonda balki butun jaxonda eng muhim vazifalardan biri sifatida nomoyon bo'lmoqda. Aynan ma'naviy barkamol avlod mamlakat kelajagini belgilab beradi. Ma'naviy barkamollik esa jamiyat taraqqiyotining eng muhim omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shayx Muhammad Sodik Muhammad yusuf "Ijtimoiy odoblar" Hilol nashir T: 2012 253-b
2. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch".Manaviyat nashri T; 2008 127-bet
3. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi –T: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti 2003-540b
4. Oila davrasida. -№ 21 -2018 24 mart
5. Mamiroov S Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik// <https://adolatgzt.uz/society/.5817> (Murojat muddati 18.05.2021)
6. Murodov Sh. О Проблемы обеспечения информационной безопасности Республики Узбекистан в условиях глобализации. –Т Sharq, 2008-b.162

7. Nishanova G Audiovizul AOV yoshlar dunyoqaarashi va ma'naviyatiga ta'siri //O'zbekiston Respublikasida yoshlar siyosatining amalga oshirilishining dolzarb masalalari. Konf. mat-lari –T.: Ma'naviyat, 2013. –B. 296-298
8. Orzack M. Computer Addiction Services. 1996-2003// <http://www.computeraddiction.com> (Мурожаат муддати 12.03.2021)